

## KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

**Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
Iqtisodiyot kafedrası mudiri, PhD

**Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistri

### Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonada inqirozga qarshi boshqarish strategiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotda inqiroz holatlarini oldindan aniqlash, risklarni kompleks baholash va monitoring qilish, strategik moslashuvchanlikni oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash masalalari alohida o‘rganilgan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda korxonalar uchun raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanishning inqirozga qarshi boshqaruvdagi o‘rni keng yoritilgan. Xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar korxonalar inqirozga bardoshlilikini oshirish hamda ularning strategik barqaror rivojlanishini ta‘minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** inqirozga qarshi strategiya, risklarni boshqarish, strategik moslashuvchanlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion yondashuvlar, raqamli transformatsiya, korxonada boshqaruvi.

### Аннотация

В данной статье на научной основе проанализированы направления совершенствования стратегии антикризисного управления на предприятии. В исследовании отдельно изучены вопросы раннего выявления кризисных ситуаций, комплексной оценки и мониторинга рисков, повышения стратегической гибкости, обеспечения финансовой устойчивости. Также широко освещена роль использования цифровых технологий и инновационных подходов в антикризисном управлении предприятиями в современных условиях. Разработанные на основе зарубежного и отечественного опыта предложения и рекомендации направлены на повышение кризисоустойчивости предприятий и расширение их возможностей по обеспечению своего стратегического устойчивого развития.

**Ключевые слова:** антикризисная стратегия, управление рисками, стратегическая гибкость, финансовая устойчивость, инновационные подходы, цифровая трансформация, управление предприятием.

### Abstract

This article analyzes the directions of improving the anti-crisis management strategy at the enterprise on a scientific basis. The study separately studied the issues of early detection of crisis situations, comprehensive assessment and monitoring of risks, increasing strategic flexibility, and ensuring financial stability. Also, the role of

the use of digital technologies and innovative approaches in anti-crisis management for enterprises in modern conditions was widely covered. The proposals and recommendations developed on the basis of foreign and national experience are aimed at increasing the crisis resilience of enterprises and expanding their opportunities for ensuring their strategic sustainable development.

**Keywords:** anti-crisis strategy, risk management, strategic flexibility, financial stability, innovative approaches, digital transformation, enterprise management.

## KIRISH

Global iqtisodiy jarayonlarning beqarorligi, geosiyosiy xavflarning ortishi va makroiqtisodiy nomutanosibliklar kuchayishi korxonalar faoliyatida inqiroz holatlari yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Jahon Bankining 2024–yilgi “Global Economic Prospects” hisobotida qayd etilishicha, global iqtisodiy o‘sish sur‘atlari pasayib, 2025–yilgacha rivojlanayotgan davlatlarda biznes faolligi sezilarli darajada susayishi mumkinligi taxmin qilingan [1]. Ushbu jarayonlar korxonalarda inqirozga qarshi boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish talabini yuzaga keltiradi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) o‘zining “Employment and Resilience Report 2023” hujjatida korxonalar faoliyatining barqarorligini oshirish uchun risklarni oldindan baholash, inqirozga tayyorlik rejalarini ishlab chiqish va strategik moslashuvchanlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidlagan [2]. Shuningdek, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) tomonidan 2023–yilda e’lon qilingan “Crisis Management Framework” ko‘rsatmalarida ham korxonalar uchun tezkor moliyaviy yondashuvlar va innovatsion boshqaruv uslublari inqirozga qarshi kurashda muhim omil sifatida belgilangan [3].

O‘zbekiston Respublikasida ham korxonalar faoliyatini barqarorlashtirish va inqirozga tayyorligini oshirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 12–apreldagi “Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–208-son<sup>1</sup> qarori bilan xususiy sektor barqarorligini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash va inqirozga qarshi boshqaruv tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi [4]. Shuningdek, 2023–yil 5–iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 371–son qarori asosida “Korxonalar barqarorligini ta’minlash konsepsiyasi” tasdiqlanib, korxonalar uchun inqiroz holatlarini oldindan aniqlash va boshqarish metodikasini ishlab chiqish belgilangan [5].

Bundan tashqari, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan 2023–yilda e’lon qilingan “Private Sector Resilience Report”da xususiy sektor barqarorligini mustahkamlash uchun strategik rejalashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali inqiroz xavflariga qarshi bardoshlilikni oshirish zarurligi qayd etilgan [6].

Yuqorida keltirilgan xalqaro va milliy darajadagi tavsiyalar asosida korxonada inqirozga qarshi boshqarish strategiyasini takomillashtirish, risklarni boshqarish

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-5959958>

mexanizmlarini rivojlantirish va strategik moslashuvchanlikni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masalasiga aylangan. Shu sababli, mazkur maqolada korxonada inqirozga qarshi boshqarish strategiyasining zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy asosda o'rganiladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonada inqirozga qarshi boshqarish strategiyasini takomillashtirish mavzusi global va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Tadqiqot davomida bu boradagi ilg'or nazariyalar, amaliy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar o'rganilgan.

Gunnar Myrdal o'z asarlarida iqtisodiy tizimlarning nomutanosib rivojlanishi va bu holatlarning inqirozlarni qanday kuchaytirishini chuqur ilmiy asosda tahlil qilgan. U hududiy beqarorliklarning iqtisodiy tizim barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlaydi [7].

Peter Drucker korxonada boshqaruvida barqarorlik va inqirozga tayyorlik masalalarini boshqaruvning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, strategik moslashuvchanlik korxonaning eng muhim raqobatbardoshlik omillaridan biridir [8].

Michael Porter raqobat muhitida inqirozlarning roli va korxonada strategiyasini tayyorlashda potensial xavf omillarini tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi [9].

Henry Mintzberg rasmiy strategik rejalashtirish usullarining cheklovlari va real sharoitda moslashuvchanlik zarurligini asoslaydi. Bu, ayniqsa, inqiroz sharoitida strategiyani qayta ko'rib chiqish ehtiyojini ko'rsatadi [10].

S. Brigham va J. Houston moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish hamda likvidlikni boshqarishning inqiroz sharoitida hal qiluvchi rol o'ynashini chuqur ilmiy asosda bayon etgan [11].

Jahon Bankining "World Development Report 2023" hisobotida iqtisodiy o'sish va beqarorlik sharoitida korxonalarining bardoshlilikini oshirish uchun strategik yondashuvlar zarurligi ko'rsatilgan [12].

International Labour Organization (ILO) tomonidan tayyorlangan "Employment and Resilience Report" da mehnat bozori beqarorligi va korxonalarda barqaror faoliyatni ta'minlash mexanizmlari yoritilgan [13].

Barney o'z maqolasida resurslarga asoslangan strategiyani shakllantirish va uni inqiroz sharoitida qo'llashning afzalliklari haqida ilmiy asoslangan fikrlarni bildiradi [14].

Ansoff esa inqirozga tayyor turish uchun diversifikatsiya va innovatsiya siyosatini kuchaytirish zarurligini ko'rsatib o'tadi [15].

Hambrick va Fredrickson o'z maqolasida strategik rejalarning real sharoitda qanchalik muvofiqligini baholash mezonlarini taklif qiladi [16].

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar uchun inqirozga tayyor turish va boshqaruvning strategik moslashuvchanligini oshirish fundamental ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyati risklarni oldindan aniqlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy qilishga bog'liqdir.

## METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv kichik biznes subyektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilish imkonini berdi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qoʻllanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik va ekspert baholash metodlari. Tadqiqotda Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda kichik biznes subyektlarining moliyaviy va iqtisodiy koʻrsatkichlari, shuningdek, ekspert soʻrovlari natijalari keng qoʻllanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatining iqtisodiy rivojlanish surʼatlari, hududlararo farqlanish tendensiyalari hamda xoʻjalik yurituvchi subyektlarning inqirozga bardoshlilik darajasini aniqlash maqsadida 2020–2025-yillar davomidagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlarni tizimli oʻrganish zarur hisoblanadi. Jumladan, viloyat va uning tumanlari kesimida yalpi hududiy mahsulot (YaHM) oʻsish surʼatlari, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar jalb qilinishining dinamikasi, aholi bandligi va ishsizlik darajasi kabi asosiy indikatorlar asosida kompleks tahlilni amalga oshirish talab etiladi. Bu esa iqtisodiy oʻsishning hududiy nomutanosibligini, sektorlar kesimidagi rivojlanish tafovutlarini hamda korxonalarining iqtisodiy inqirozlarga nisbatan bardoshlilik salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu tahlillar natijasida hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, investitsion muhitni optimallashtirish va barqaror rivojlanishni taʼminlashga doir ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Bunday yondashuv Namangan viloyatining makroiqtisodiy koʻrsatkichlari asosida umumiy iqtisodiy holatni baholash, rivojlanishdagi hududiy nomutanosibliklarni aniqlash, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlarni baholash va kelgusida iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun zarur boʻlgan ilmiy asoslarni yaratadi.

### 1-jadval

#### Namangan viloyatida 2020–2025-yillarda yalpi hududiy mahsulot (YaIM) va oʻsish surʼatlari<sup>1</sup>

Yil	YaIM hajmi (mlrd soʻm)	Oʻsish surʼati (%)
2020	28 450	—
2021	31 000	8,9
2022	34 300	10,6
2023	37 800	10,2
2024	41 500	9,8
2025 (prognoz)	45 700	10,1

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

1-jadval Namangan viloyatining soʻnggi besh yillikdagi iqtisodiy dinamikasini, rivojlanish tendensiyalarini va mavjud muammolarni chuqur tahlil etishga xizmat

<sup>1</sup> Namangan viloyati Statistika boshqarmasi. (2024). 2020–2024-yillar iqtisodiy koʻrsatkichlar hisobotlari. Namangan: Statistika nashriyoti.

qiladi. Shuningdek, u korxonalar darajasida inqirozga bardoshlilikni ta'minlash bo'yicha strategik xulosalar chiqarish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, 2020–2025-yillar oralig'ida Namangan viloyatining yalpi hududiy mahsulot (YaIM) hajmi izchil va barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2021–yilda global pandemiya ta'siriga qaramay, viloyatda iqtisodiy tiklanish tez amalga oshirilgan bo'lib, YaIM o'sishi 8,9 %ni tashkil etgan. Keyingi yillarda iqtisodiy faollikning yanada kuchaygani natijasida o'sish sur'atlari 10 %dan oshdi. Bu holat hududda iqtisodiy siyosatning to'g'ri yo'naltirilganini ko'rsatadi.

Prognoz ma'lumotlariga ko'ra, 2025–yilga kelib viloyatning YaIM hajmi 45,7 trillion so'mga yetadi. Bu yirik ko'rsatkich bir qator omillar bilan izohlanadi. Avvalo, investitsiya muhitining yaxshilanishi, tashqi va ichki investitsiyalar hajmining oshishi iqtisodiy o'sishni jadallashtirgan. Shuningdek, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida ichki ishlab chiqarish salohiyatining kengaygani hamda infratuzilma loyihalarining faollashtirilgani YaIM ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Bundan tashqari, kichik va o'rta biznes subyektlarining rivojlanishi, hududiy resurslardan samarali foydalanish va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining joriy etilishi viloyat iqtisodiy tizimining ichki mustahkamligini oshirishga xizmat qilmoqda. YaIMdagi barqaror o'sish Namangan viloyatining iqtisodiy tizimi tashqi shoklarga nisbatan bardoshlilikini kuchaytirganini va kelajakda yanada kengroq iqtisodiy imkoniyatlar uchun zamin yaratilayotganini anglatadi (2-jadval).

## 2-jadval

### Namangan viloyati tumanlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi<sup>1</sup> (mlrd so'mda)

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (prognoz)
Namangan shahri	8 200	9 000	10 100	11 300	12 400	13 600
Kosonsoy tumani	2 100	2 450	2 900	3 300	3 800	4 300
Chust tumani	1 700	1 950	2 250	2 600	2 950	3 300
Pop tumani	1 850	2 150	2 500	2 900	3 300	3 800
To'raqo'rg'on tumani	1 500	1 750	2 050	2 400	2 700	3 000

*Manba: Namangan viloyati sanoat va tadbirkorlik boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.*

2-jadval natijalari tahlilidan ma'lum bo'lishicha, Namangan shahri viloyat sanoat ishlab chiqarishida yetakchi mavqega ega bo'lib, iqtisodiy faollik va ishlab chiqarish salohiyatining asosiy markazi sifatida shakllangan. 2025–yilga kelib shaharda sanoat mahsulotlari hajmining 13,6 trillion so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. Ushbu ko'rsatkich shahar sanoat infratuzilmasining doimiy modernizatsiyasi, investitsiya

<sup>1</sup> Namangan viloyati Sanoat va tadbirkorlik boshqarmasi. (2024). *Hududiy sanoat rivojlanishi ma'lumotlari*. Namangan.

loyihalarining ko‘pligi va innovatsion ishlab chiqarish tarmoqlarining kengaygani bilan bog‘liq.

Kosonsoy, Chust va Pop tumanlarida ham sanoat ishlab chiqarish hajmining izchil o‘sayotgani kuzatilmoqda. Ushbu hududlarda kichik va o‘rta sanoat subyektlarining rivojlanishi, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish hamda infratuzilma obyektlarining rekonstruksiya qilinishi sanoat faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, logistika tizimining rivojlanishi va ishlab chiqarish quvvatlarining zamonaviylashtirilgani ushbu tumanlarda sanoat o‘shishini jadallashtirgan.

Biroq, tahlillar To‘raqo‘rg‘on tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur‘atlari viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan nisbatan pastroq ekanligini ko‘rsatmoqda. Tuman sanoat rivojlanishida asosiy to‘siqlar sifatida investitsiya oqimining cheklanganligi, ishlab chiqarish korxonalarining texnik va texnologik yangilanish darajasining pastligi qayd etiladi. Shunga qaramay, To‘raqo‘rg‘on tumanida ham sanoat o‘shishining barqaror tendensiyasi saqlanmoqda. Bu esa tegishli qo‘llab-quvvatlash choralari orqali tez fursatda o‘shish sur‘atlarini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, Namangan viloyatida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish sur‘atlari yuqori baholanishi mumkin. Biroq hududlararo tafovutlarni bartaraf etish va sanoatni tumanlar miqyosida yanada muvozanatli rivojlantirish uchun maqsadli strategiyalar ishlab chiqish zarur (3-jadval).

### 3-jadval.

#### Namangan viloyatida 2020–2025-yillarda investitsiya jalb qilish hajmi<sup>1</sup> (mlrd so‘mda)

Yil	Xorijiy investitsiyalar	Mahalliy investitsiyalar	Umumiy investitsiyalar
2020	750	2 400	3 150
2021	850	2 700	3 550
2022	950	3 100	4 050
2023	1 150	3 600	4 750
2024	1 350	4 000	5 350
2025 (prognoz)	1 600	4 400	6 000

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.*

Investitsiya jalb qilish ko‘rsatkichlari Namangan viloyatida 2020–2025-yillar oralig‘ida izchil o‘shib bormoqda. Xususan, xorijiy investitsiyalar hajmi 2020–yilda 750 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025–yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 1,6 trillion so‘mga yetishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o‘shish tendensiyasi viloyat iqtisodiyotining ochiqligi, xorijiy investitsiyalar uchun yaratilayotgan qulay biznes muhiti va institutsional islohotlarning samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda.

Xorijiy investitsiyalarning ortib borishi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirish va

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2024). *Investitsiyalar tahlili va rivojlanish hisobotlari*. Toshkent: ITSV matbaa.

zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb etish uchun qulay makon shakllanayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xorijiy kapital kirib kelishi natijasida korxonalarda raqobatbardoshlikning oshishi, eksport salohiyatining kengayishi va zamonaviy boshqaruv tajribalarining joriy qilinishi kabi ijobiy omillar yuzaga kelmoqda.

Mahalliy investitsiyalarning ham barqaror o'sib borayotgani ichki kapital resurslaridan foydalanish samaradorligining oshgani, iqtisodiy islohotlar natijasida ichki investitsion faollik kuchaygani va biznes subyektlari ishonchining ortgani bilan izohlanadi. 2025–yilga kelib mahalliy investitsiyalarning 4,4 trillion so'mga yetishi kutilayotgani iqtisodiyotda ichki o'sish zaxiralarining to'g'ri safarbar qilinayotganini ko'rsatadi.

Biroq, investitsiya oqimlarining asosiy qismi Namangan shahri va iqtisodiy jihatdan rivojlangan tumanlarga yo'naltirilayotgani hududiy rivojlanishda notekislikni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, kelgusida investitsiya siyosatini diversifikatsiya qilish, investitsiya oqimlarini kam rivojlangan tumanlarga ham yo'naltirish orqali umumiy hududiy iqtisodiy barqarorlikka erishish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda (4-jadval).

#### 4-jadval.

#### Namangan viloyatida 2020–2025-yillarda bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

Yil	Aholi bandlik darajasi (%)	Ishsizlik darajasi (%)
2020	54,5	11,0
2021	56,0	9,8
2022	57,5	8,6
2023	59,0	7,5
2024	60,2	6,9
2025 (prognoz)	61,5	6,3

*Manba: Namangan viloyati Bandlik va mehnat munosabatlari boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.*

Bandlik darajasining izchil o'sishi va ishsizlik darajasining muntazam pasayib borishi Namangan viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'atlar bilan kechayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. 2020–2025-yillar davomida olib borilgan iqtisodiy islohotlar, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirish natijasida bandlik darajasi muntazam ortib bormoqda.

Prognoz ma'lumotlariga ko'ra, 2025–yilga kelib viloyatdagi ishsizlik darajasi 6,3 %ga kamayadi. Bu ko'rsatkich mehnat bozori barqarorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlarning ijobiy samarasi hisoblanadi. Ayniqsa, yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish, shuningdek, infratuzilma va qurilish sohalarida amalga oshirilayotgan yirik loyihalarning faollashgani bu jarayonga sezilarli hissa qo'shdi.

<sup>1</sup> Namangan viloyati Bandlik va mehnat munosabatlari boshqarmasi. (2024). Hududiy bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari. Namangan.

Biroq hududiy kesimda olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim chekka tumanlarda ishsizlik darajasi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoriroq darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat, asosan, iqtisodiy faoliyat turlarining cheklanganligi, investitsiya oqimlarining markaziy hududlarga to'planganligi va kasbiy malakali ishchi kuchi taqchilligi bilan bog'liq.

Shu bois, hududiy bandlik siyosatini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining sementatsiyasini chuqurlashtirish, chekka tumanlarda ish o'rinlarini ko'paytirish, kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan maqsadli loyihalarni amalga oshirish hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Namangan viloyati va uning tumanlari misolida 2020–2025-yillar davomidagi iqtisodiy tahlillar asosida quyidagi ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, Namangan viloyatining yalpi hududiy mahsulot (YaIM) hajmi izchil va barqaror o'sib bormoqda. 2025–yilga kelib YaIM hajmi 45,7 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Bu holat viloyatda iqtisodiy o'sish strategiyalarining to'g'ri tanlanganini va investitsiya faoliyatining oshganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, sanoat ishlab chiqarish hajmining oshishi, xususan Namangan shahri, Kosonsoy, Chust va Pop tumanlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Biroq ayrim tumanlarda, masalan To'raqo'rg'onda, sanoat o'sishi sur'atlari nisbatan past bo'lib qolmoqda. Bu esa ichki investitsiyalar hajmini ko'paytirish va sanoat infratuzilmasini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, xorijiy va mahalliy investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Xorijiy investitsiyalar 2020–yildagi 750 milliard so'mdan 2025–yilda 1,6 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalar tumanlararo notekis taqsimlanayotgani hududiy nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda.

To'rtinchidan, bandlik darajasi izchil o'smoqda va ishsizlik darajasi pasaymoqda. 2025–yilga kelib ishsizlik 6,3 % atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bu holat viloyatda yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat bozorini rivojlantirish siyosatining samaradorligini ko'rsatadi. Biroq ayrim tumanlarda ishsizlik darajasi nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. (2024). *Global Economic Prospects: Slowing Growth, Rising Risks*. Washington, D.C.: World Bank Publications.
2. International Labour Organization (ILO). (2023). *Employment and Resilience Report 2023*. Geneva: ILO Publishing.
3. International Monetary Fund (IMF). (2023). *Crisis Management Framework for Emerging Economies*. Washington, D.C.: IMF Publications.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *PQ-208-son qaror: Xususiy sektor barqarorligini oshirish va investitsiya muhitini yaxshilash chora-tadbirlari*. Toshkent:
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). *371-son qaror: Korxonalar barqarorligini ta’minlash konsepsiyasi*. Toshkent:
6. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). *Private Sector Resilience Report*. New York: UNDP Publications.
7. Myrdal, G. (1957). *Economic Theory and Underdeveloped Regions*. London: Gerald Duckworth & Co Ltd. <https://archive.org/details/economictheoryan00myrd>
8. Drucker, P. F. (1974). *Management: Tasks, Responsibilities, Practices*. New York: Harper & Row.
9. Porter, M. E. (1980). *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. New York: Free Press.
10. Mintzberg, H. (1994). *The Rise and Fall of Strategic Planning*. New York: Free Press.
11. Brigham, E. F., & Houston, J. F. (2018). *Fundamentals of Financial Management*. Boston: Cengage Learning.
12. World Bank. (2023). *World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies*. Washington, D.C.: World Bank Group.
13. International Labour Organization (ILO). (2023). *Employment and Resilience Report*. Geneva: ILO Publishing.
14. Barney, J. B. (1991). *Firm Resources and Sustained Competitive Advantage*. *Journal of Management*, 17(1), 99–120.
15. Ansoff, H. I. (1987). *Strategic Management*. London: Palgrave Macmillan.
16. Hambrick, D. C., & Fredrickson, J. W. (2001). *Are You Sure You Have a Strategy?* *Academy of Management Executive*, 15(4), 48–59.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**